


Buxoro viloyatida kichik tadbirkorlik


2018 yilning yanvar-sentyabrida 2282 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 45,4 ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korhona va mikrofirmalar savdo sohasida (18,4 %), sanoat tarmog'ida (18 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (17,6 %), qurilishda tarmog'ida (15,5 %), qishloq, yashash va ovqatlanishda (9,1 %), tashish va saqlashda (4,1 %) tashkil etilgan.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi




2018 yilning yanvar-sentyabrda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'yeqtalarining soni (har 1000 aholiga, birlikda).



2018 yilning yanvar-sentyabrida kichik tadbirkorlik sub'yeqtalarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Buxoro shahrida 17,6 birlikda, Qorovulbozor tumanida 13,7 birlikda, Kogon tumani 10,0 birlikda, Romitan tumani 8,1 birlikda, Kogon shahrida 8,0 birlikda va Peshko' tumanida 7,4 birlikda bo'lib, o'rtacha ko'rsatkich 4,1-6,4 birlik oralig'ida Buxoro, Jondor, G'ijduvon, Vobkent, Shofirkon, Olot va Qorako'l tumanlarida aniqlandi.


**Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni
(har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-sentyabr holatiga.**



2016 yilning yanvar- sentyabrida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 6,6 birlikda bo'lib, 2017 yilda 6,9 birlikni tashkil etdi. 2018 yilda bu ko'rsatkich 7,6 birlikka yetdi. Bu esa, 2016 yil ko'rsatkichidan 1,0 birlik yuqori.

2018 yilning yanvar-sentyabrida kichik tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 71,1 % ni tashkil qildi (2017 yilning yanvar-sentyabrida 69,8%). YaIM tarkibida kichik tadbirkorlik ulushining o'sishi yirik korxonalar ulushi pasayishi bilan tushuntiriladi.

**Kichik tadbirkorlikning YaIMdagi ulushining pasayishi
dinamikasi yanvar-sentyabr holatiga, %**



**2018 yil yanvar-sentyabrida kichik tadbirkorlikning
hududlar bo`yicha ulushi
(% da)**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar
Buxoro viloyati	42,7	84,2	73,2
Buxoro shahar	63,3	90,9	60,1
Kogon shahar	32,2	68,8	86,3
Tumanlar			
Olot	56,9	65,2	94,7
Buxoro	91,4	98,4	97,5
Vobkent	100	100	94,8
G'ijduvon	77,1	100	95,1
Kogon	96,8	89,4	89,7
Qorako'l	68,0	94,4	97,6
Qoravulbozor	1,1	19,2	36,0
Peshko'	66,9	100	93,8
Romitan	32,4	83,8	95,6
Jondor	60,2	100	92,1
Shofirkon	84,0	95,4	93,1

Hududlar bo`yicha sanoat sohasining yuqori ulushini Vobkent (100,0 %), Kogon (96,8 %) va Buxoro (91,4 %) tumanlari tashkil etadi.


Qurilishda Vobkent (100,0 %), G'ijduvon (100,0 %), Peshko' (100,0 %) va Jondor (100,0 %) tumanlari tashkil etadi.

Xizmatlar sohasida Buxoro (97,5%) va Qorako'l (97,6 %) tumanlari tashkil etadi.


2018 yilning yanvar–sentyabrida kichik tadbirkorlik sub`ektlari tomonidan:

- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 2339,8 mlrd. so`mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 42,7 %) yoki 2017 yilning yanvar–iyuniga nisbatan o`sish sur`ati 104,1 %ni tashkil qildi;
- 1429,3 mlrd. so`mlik investitsiyalar (umumiyligi investitsiyalar hajmining 23,2 %i) o`zlashtirildi va 2017 yilning yanvar–sentyabriga nisbatan o`sish sur`ati 138,6 %ni tashkil qildi;
- 2029,9 mlrd. so`mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiyligi hajmining 84,2 %) bajarildi va 2017 yilning yanvar–sentyabriga nisbatan o`sish sur`ati 122,4 % ni tashkil qildi;
- 3374,4 mlrd. so`mlik xizmatlar ko`rsatilib (viloyat jami xizmatlar xajmining 73,2 %), 2017 yilning yanvar–sentyabriga nisbatan o`sish sur`ati 101,8 % ni tashkil qildi;
- chakana tovar aylanmasi umumiyligi hajmining 89,2 % yoki 5043,9 mlrd. so`mi (o`sish sur`ati 2,1 % ni tashkil qildi) shakkllantirildi;
- 51,1 mln. AQSh dollarasi (umumiyligi eksport hajmining 44,3 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2017 yilga nisbatan 8,3 mln. AQSh dollariga yoki 86,0 % ga kam;
- avtomobil transporti yuk aylanmasining 6,4 %ga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 83,3 %) ko`payishi ta`minlandi;
- yo`lovchi aylanmasining esa 4,0 % ga (umumiyligi yo`lovchi aylanmasining 96,8 %) ko`payishi ta`minlandi;

**Kichik tadbirkorlikning ulushi
(umumiyligi hajmiga nisbatan % da)**




2018 yil yanvar-sentyabrida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur`ati



Hududlar bo`yicha eng ko`proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Buxoro shahri (616,1 mlrd.so'm), G`ijduvon (276,0 mlrd.so'm) va Kogon (263,6 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Qorovulbozor (20,8 mlrd.so'm) tumanida ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo`lib qolmoqda.




**2018 yil yanvar-sentyabrida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik
(biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur`ati**



Hududlar bo`yicha ko`proq chakana tovar aylanmasi hajmi Buxoro shahri (1492,9 mlrd.so'm), G'ijduvon (859,6 mlrd.so'm), Qorako'l (537,4 mlrd.so'm), Romitan (346,4 mlrd.so'm) va Jondor (321,4 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to`g'ri keladi.



2018 yil yanvar-sentyabrida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va sur'ati




Hududlar bo`yicha ko`proq xizmatlar hajmi Buxoro shahri (1600,6 mlrd.so'm), G'ijduvon (470,8 mlrd.so'm) va Buxoro (168,2 mlrd.so'm), Romitan (148,4 mlrd.so'm) va Vobkent (147,4 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha 2018 yil III - chorak yakunlariga ko`ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o`tkazildi. Unda 58 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi.

Kuzatuv ma`lumotlari tahlili, qurilish sohasida respondentlarning 56,0 % iqtisodiy vaziyatni – qulay va 22,0 % esa qoniqarli deb hisoblashini, mos ravishda savdo sohasida – 45,0 % va 36,0 %, xizmatlar sohasida – 67,0 % va 22,0 %, qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 40,0 % va 30,0 %, sanoatda – 60,0 % va 30,0 %ni tashkil qilganini ko`rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda – 10,0 %, qurilishda – 22,0 %, qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 30,0 %, savdo – 19,0 %, xizmatlarda – 11,0 % ni tashkil qildi.

Iqtisodiy vaziyatni baholash 2018 yil III–chorak uchun, %



Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 90,0 % sanoat korxonalari, 89,0 % – qurilish, 88,0 % – xizmatlar, 82,0 % – savdo va 80,0 % – qishloq, o'rmon va baliq xo`jaligi tarmog`ida kutilmoqda.

Iqtisodiy vaziyatdagi o`zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, %



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yahshilash uchun ko'rileyotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiyligida iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.